

ALI IBN ABU TOLIB ROZIYALLOHU ANHU ISLOM DINIGA QO'SHGAN HISSASI

Abdurahmonov Og'abek Juma o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali Ax 23_08 guruh talabasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada buyuk alloma Ali ibn Abu Tolib ibn Abdulmuttalib ibn Hoshim ibn Abdumanof roziyallohu anhu. Rosulullohning jiyanlari va kuyovlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xudo, ilm, ta'lim, islom, ta'limot, qur'on, din, xadis, alloh, e'tiqod, arab, ramazon, qurbanlik, Makka, Madina, xalq, itoat, Imon, zakot, xaj.

Kimki itoatdan chiqib va jamoatdan ajralib vafot qilsa, johiliyat o'ligi holda o'lib ketadi. Kimki ummatimga qarshi chiqib, yaxshisini ham, yomonini ham (bo'yiniga qilich va bolta ila) ura boshlasa, ularning mo'minligiga parvo qilmay qo'ysa, ularning ahslashgan kimsalariga vafo qilmasa, u mendan emas! Kimki asabiylikka chaqiradigan ko'r bayroq ostida urishsa yoki asabiylik bilan g'azablanaversa, u o'ldirilsa, jaholat holida o'ldirilgan bo'ladi!

Ali ibn Abu Tolib Roziyallohu anhu.

Ali ibn Abu Tolib ibn Abdulmuttalib ibn Hoshim ibn Abdumanof oziyallohu anhu. Rosulullohning jiyanlari va kuyovlari, xulafoyi roshidunlarning oxirgisi hamda jannat bashorati berilgan o'n kishining biri. Ali (roziyallohu anhu) ning "Haydar", "Murtazo", "AbuTurob", "AbulHasan", "Abu Sibtayn" kabi kunya va laqablari bo'lgan. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) hijratdan 23 yil avval, rajab oyining 13- kuni Makka shahrida tavallud topganlar. Milodiy hisobda bu 599-yil 17- martga to'g'ri keladi. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) bug'doyrang, ko'zlar kattakatta va bo'rtibroq chiqqan, qorinli, suyaklari yo'g'on va keng yelkali kishi edilar. Sochlariga oq tushgan, soqollari keng bo'lib bo'yalmagan edi. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) johiliyat davrida ham butlarga ibodat qilmagan. Risolat kelishidan 4 yoki 5 yil avval Makkada qahatchilik boshlanadi. Obro'-e'tiborli bo'lishiga qaramay qo'li kaltaroqligi uchun qarindoshlari Abu Tolibning bolalarini o'z qaramog'iga olishga qaror qildilar. Shunda Alini bo'lajak Payg'ambar 2 Muhammad (alayhissalom) o'zlariga oldilar. Islom tarixida Ali (roziyallohu anhu)

yosh bolalardan birinchi bo‘lib islomni qabul qilgan kishi hisoblanadi. Islom tarixida Ali ibn Abu Tolib Payg‘ambar (alayhissalom)dan keyin birinchi bo‘lib namoz o‘qigan erkak kishi sifatida ham e’tirof etiladilar. Shuningdek, Ali (roziyallohu anhu) Payg‘ambar (alayhissalom) bilan birga Makka atrofidagi qabilalar va Toif shahriga da’vat uchun birga chiqqanlar. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam)ning eng ishongan kishilaridan edilar, shu sababli ham u zotga vahiy kotibi bo‘lish, elchilik qilish mas’uliyati topshirilgan edi.¹ Payg‘ambar (alayhissalom) ko‘p masalalarda Ali (roziyallohu anhu) bilan maslahatlashganlar. Jumladan, mashhur “Ifk” voqeasida ham U zot (alayhissalom) Ali (roziyallohu anhu)ning fikriga quloq tutganlar. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) “Tabuk”dan boshqa. Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam) hayotlarida bo‘lib o‘tgan barcha g‘azotlarda ishtirok etganlar. Milodiy 630-yili Makka fathidan qaytishda Payg‘ambar (alayhissalom) G‘adir Xum nomli mavzeda Ali (roziyallohu anhu)ni maqtab, uni o‘z mavlolari deb e’lon qiladilar. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu xalifaligi davrida Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu eng yaqin maslahatchi bo‘ldilar. Manbalarda qayd etilishicha, o‘zlaridan oldingi uch xalifa davrida ham bosh qozilik vazifasini bajarganlar. Xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhu safarga chiqqanlarida hazrat Ali roziyallohu anhuni Madinaga voliy etib tayinlar edilar. Hazrat Umar roziyallohu anhu biror mushkul ish uchrasha, doim Ali roziyallohu anhudan so‘rar va u haqida “Oralarida sen bo‘lmagan qavm bilan yashashdan Allohdan panoh so‘rayman, ey Abul-Hasan”, der edilar. O‘limi arafasida Umar roziyallohu anhu xalifalikka loyiq bir necha kishi qatorida Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) ning nomzodini ham keltirganlar. Uchinchi xalifa Usmon ibn Affon (roziyallohu anhu) davrida ham hazrat Ali roziyallohu anhu maslahatchi maqomida bo‘lganlar. Usmon roziyallohu anhuga qarshi uyushtirilgan fitnalarda Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu qattiq turib, oxirigacha xalifani himoya qildilar. Xalifa Usmon (roziyallohu anhu) topshirig‘iga binoan isyonchilar bilan muzokaralar olib bordilar. Usmon ibn Affon roziyallohu anhu o‘z uyida qamal qilingan paytda o‘g‘illari Hasan va Husayn roziyallohu anhumani xalifani himoya qilish uchun qo‘riqchi qilib qo‘ydilar.²

Ali ibn Abu Tolib (roziyallahu anhu) xulafoyi roshidunlarning to‘rtinchisi bo‘lib, hijriy 35-yili zulhijja oyining 25-sanasi, juma kunida bay’at qabul qilganlar. Hazrat Ali roziyallohu anhuning xalifalik davrlarida bir qancha fitnalar yuz berdi. Ilk bor

¹ <https://tamaddun.abiduvn.uz/a/Ali-ibn-Abu-Tolib-roziyallohu-anhu-7545>.

² <https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/ali/>.





mirshablik ta'sis etilishi, aholi uchun bir necha maxsus markazlar joriy qilinishi (masalan “Mazlumlar uyi” kabi), Kufa shahrining obod bo'lishi va u yerda madrasalar barpo etilishi aynan hazrat Ali (roziyallohu anhu) xalifaligi davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, uning tashabbusi bilan Abul Asvat Dualiy arab tili grammatikasini tartibga soldi. Ba'zi manbalarda ilk musulmon dirhamlari ham aynan Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) tomonidan zarb ettirilgani qayd etiladi. Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu) 40/661-yili, ramazon oyining 21-kuni, 64 yoshda vafot etdilar. Manbalarda qayd etilishicha, vafotlaridan uch kun avval Kufa shahri masjidida bomdod namozini o'qish uchun chiqqanlarida xorijiy Abdurahmon ibn Muljam zaharlangan qilich bilan zarba beradi. Hazrat Alini jiyanlari Abdulloh ibn Ja'far va o'g'illari Hasan va Husayn (roziyallahu anhum) yuvganlar, janozalarini Imom Hasan roziyallohu anhu o'qiganlar. Tarixchi Ibn Kasir fikriga ko'ra hazrat Ali Kufa shahridagi “Dorul-Xilofa” qabristoniga dafn qilinganlar.³

Ali ibn Abu Tolib, Islomning o'ziga xos o'lim tariqasiga ega bo'lgan. Uning shahadati, 661-yilda geraylikda yuzaga kelgan fitna natijasida to'g'ri kelgan. U shahadatining keyin, Uning oliy maqomi va Islom diniga berilgan ahamiyati doimiy ravishda oshirilgan. Hazrati Ali kambag'alliklari sababli na Fotimaga va na boshqa bir ayolga uylanish to'g'risida fikr ham qilib ko'rmasdilar. Kunlardan bir kuni singillari: Abu Bakr bilan Umar Rasulullohning oldilariga alohida kelib Fotimani so'rashibdi, biroq Rasululloh rozilik bermabdilar. Mening o'ylashimcha, Rasululloh Fotimani sizga saqlab tursalar kerak, vaqt ni o'tkazmay sovchi bo'lib boring - dedilar. Bunga javoban Ali: Fotimaga uylanishlik uchun nimam bor? Rasululloh menga Fotimani berishlari mumkinligini kim aytdi , dedilar. Shunda singillari: Men buni o'zim sezib yuribman, siz tez boravering , dedilar. Shundan so'ng, hazrat Ali Rasulullohning uylariga bordilar va duduqlana-duduqlana: Fotimani bir eslab keluvdim , dedilar. Rasululloh u kishiga boqib: Xush kelibsiz dedilar, xolos. Ali esa Rasulullohning ishlaridan hayratga tushib qaytib ketaverdilar. Mehribon ota qizlarining yonlariga borib tabassum ila boqib: Ey Fotima, sizni haqiqatda Alloh hamda uning Rasuli erga beryapti , deganlarida, Fotima: Unday bo'lsa, men Alloh va Rasuli buyurgan kishini qabul qilaman , dedilar. Shundan keyin Rasululloh Alini chaqirtirib kelib: Biror narsangiz bormi? deb so'radilar. Ali esa Qalqonimdan o'zga hech narsam yo'q , dedilar. Bo'lmasa qalqoningizni sotib keling deb buyurdilar. Ali qalqonlarini sotib, pulini Rasulullohning oldilariga qo'ydilar. Rasululloh puldan bir

³ <https://tamaddun.abiduvn.uz/a/Ali-ibn-Abu-Tolib-roziyallohu-anhu-7545>



necha tangani olib bozordan atir-upa, kelinchakka taqinchoqlar sotib olib keltirdilar.⁴

Xorijiylardan bo‘lgan Shom xalifasi Abdurahmon ibn Muljam Ali roziyallohu anhuni o‘ldirgani Qufaga keladi. U yerda Vardon ismli odam bilan kelishib olib, tongda masjidga kiradi va hazrat Ali kiradigan eshiklarning yoniga kelib o‘tiradi. Hazrat Ali tonggi namozga eshikdan kirayotgan vaqtlarida Vardon zaharlangan qilich bilan zarba beradi. Ali roziyallohu anhu eshikni yondarasiga ag‘darilib tushadilar. Ibn Muljamni tutib, bog‘lab qo‘yadilar. Hazrati Ali keyin odamlarga qarab: Menga qaranglar, mana shu zarba sababli, men o‘lsam uni xuddi shunday zarba bilan o‘ldiringlar. Zero, men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan qiyab o‘ldirishdan saqlaninglar, agarda quturgan it bo‘lsa ham deganlarini eshitganman , dedilar. Shundan keyin to jonlari jasadlaridan chiqqunga qadar Allohning zikrida bo‘lib turdilar. Vafot bo‘lganlaridan keyin u janobni o‘g‘illari imom Hasan va Husayn roziyallohu anhular hamda amakivachchalari Abdulloh ibn Ja‘far yuvdilar, keyin kafanladilar. Hazrat Alining qabrlari qayerda? degan savol ko‘p asrlar sirliligacha qolib keldi. Hazrati Ali vafotidan so‘ng, uning tarafkashlari ul zot dafn etilgach, qabrlariga zarar yetishidan saqlanib, yana uchta tobut tayyorlaganlar. Ulardan biri Makkaga, biri Madinaga va Quddusga yuborilgan. Asl qabr joyi esa sir tutilgan. Bu sirdan faqatgina Payg‘ambar avlodni vakillari va ularning yaqinlarigina voqif bo‘lishgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, hazrat Alining vasiyatiga binoan uning jasadi dastlab Bag‘dod yaqinidagi Najaf shahrida dafn etilgan. Temur tuzuklari da Amir Temur hukmronligi davrida hazrat Alining Najafdagি mozoriga alohida e’tibor berilganligi bayon etilgan. Tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, Umaviylar sulolasi (660-750) davrida hazrat Alining avlodlariga hurmatsizlik ko‘rsatilgan. O‘scha vaqtda xurosonlik sarkarda Abu Muslimga hazrat Alining tobutini Balxga eltid, u yerga vaqtincha dafn etish vazifasi topshiriladi. Alining jasadlari solingan sandiq kechasi tuyaga ortilib, Balxga olib boriladi va Hayron degan qishloqda, sandiq ustiga haqiqat yozilgan bir lavhani qo‘yib yashirinchha ko‘madilar. Biroq Abu Muslim bu voqeani ommaga e’lon qilishga ulgurmasidan o‘ldiriladi. Shu tariqa jasadning Balxda ekani maxfiy qoladi.⁵

Amirul mo‘minin Usmon ibn Affon qatl etilgandan so‘ng ko‘pgina katta sahobiylar Ali ibn Abu Tolibga bay’at bera boshladilar. Bu voqeа hijratning 35-yili zulhijja oyida sodir bo‘ldi. Katta sahobiylardan Zubayr ibn Avvom va Talha ibn

⁴ <https://ahlisunna.uz/kabada-tugilgan-saxoba/>.

⁵ <https://islom.ziyouz.com/siyrat/xalifalar/xulofoi-roshidiyn-kitobidan>.



Ubaydullohlar birinchi bo‘lib bay’at berishgan. Keyin aynan shu ikki sahaba bergan bay’atidan voz kechib, mo‘minlar onasi Oisha onamiz bilan Basraga yo‘l oldi. Bu kishilar Hazrati Alini Zunnuraynning qotillarini jazolashni kechiktirayotganidan, xun talab qilmayotganidan noroziliginibildirishdi. Shu tariqa ikkovi atrofida katta jamoa to‘plandi. Amirul mo‘minin Ali ibn Abu Tolib bu ikkovi bilan uchrashishga majbur bo‘ldi. Qancha urinishlarga qaramasdan musulmonlarning ikki jamoasi orasida ixtilof chiqdi. Bu tarixga Jamal voqeasini olib kirdi. Rasululloh alayhissalomning tarbiyasini olgan Ali g‘alaba qozondi. Bu jangda ummul mo‘minin Oisha onamiz asir olindi. Lekin Abul Hasan ummul mo‘minin hurmatini joyiga qo‘yib, izzat-ehtirom bilan, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning shahriga kuzatib qo‘ydi. Ba’zi ulug‘ sahobiy ayollarni erkak kiyimida Oisha (r.a.) bilan qo‘shib yuboradi. Muoviya ibn Abu Sufyon qo‘shini zaiflashib borayotganini ko‘rgach, hiyla yo‘liga o‘tdi. U Siffin jangi asnosida askarlariga nayza va qilichlari uchiga Qur’onni ko‘tarib olishni buyurdi. Bu fitna xususida Allohnning kitobi bilan hukm chiqarishni taklif qildi. Faqih Abul Hasan Amr ibn Os va Muoviya o‘ylab chiqargan bu fitnani tushunib yetdi va o‘z qo‘shinini bu fitnadan ogohlantirdi. Lekin vaziyat yumshab iroqliklar unga qarshi chiqdi.⁶

Ali ibn Abu Tolib bu hukm chiqarishda bir hiyla-nayrang qo‘llanganini sezib qoldi. Bu ish oxir-oqibatda Ali tarafidan Abu Muso Ash’ariy va Muoviya tarafidan esa Amr ibn Osni hakam bo‘lishiga kelishib olish bilan yakun topgandek bo‘ldi. Ikki tarafning hakami uchrashdi. Bu ikki hakam bir biridan farq qilardi. Chunki Abu Muso Ash’ariy hiyla va quvlikni bilmaydigan, siyosatdan yiroq kishi bo‘lgan. U bu yerda makr-hiyla ishlatilayotganini sezmadni. Amr ibn Os esa hiyla va nayrangda ustasi farang kishi edi. Uning sohibi Muoviya ibn Abu Sufyon ham undan aslo qolishmasdi. Amr ibn Os Abu Muso Ash’ariyga tuzoq yasab, uni tushirishga shoshilmadi. Amr ibn Os Abu Muso Ash’ariy bilan uchrashganda har ikkalasi o‘z sohibini xalifalikdan bo‘shatishni va bu ishni musulmonlar jamoasiga qo‘yib, kimni xohlasalar, shuni xalifa qilib saylashlariga ixtiyor berishni taklif qildi. Bu taklif Abu Musoga ma’qul tushib jamoat oldiga chiqdi. Abu Muso Ash’ariy aldandi va uning taklifini bajardi. U arablar hiylagari Amr ibn Osning ichidagi niyati boshqa ekaniga zarracha gumon qilmagandi. Shuning uchun Abu Muso bu taklifga rozi bo‘lib minbarga ko‘tarildi va o‘z sohibi Ali ibn Abu Tolibni xalifaliqdan bo‘shatganini e’lon qildi. Bunga odamlar shohid bo‘lishdi. Amr ibn Os minbarga chiqdi va Abu Muso bilan kelishib Ali ibn Abu Tolibni xalifalikdan bo‘shatganini quvvatlab, o‘z

⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ali>.



sohibi Muoviyha ibn Abu Sufyonni esa xalifalikda qolganini e'lon qildi. Hazrati Ali siyosiy muzokarada yutqazdi. Abul Hasan shundan keyin ham harbiy quvatini tiklashga bir necha marta urinib ko'rdi. Lekin buning uddasidan chiqolmadi. Alining xalifalik davri fitna va doimiy urushlar ichida kechdi. Abu Bakr Siddiq va Umarul Foruq boshlagan futuhotlarning bir qismini Usmon ibn Affon roziyallohu anhu dastlabki yillarda davom zttirdi. Fath ishlarini Ali ibn Abu Tolib davrida davom ettirish imkonи bo'lindi. U ichki nizo va islohat ishlaridan bo'shamadi. Hazrati Ali siyosiy muzokarada Muoviyaga yutqizgandan keyin, qo'shini o'rtasida ixtilof chiqdi. Bir guruh musulmonlar qo'shindan ajralib chiqib o'zlarini "Xavo-rijlar" deb e'lon qildi. Ular Basra va Ko'fa aholisidan iborat bo'lishgan.⁷

Xavorijlar xalifa Ali ibn Abu Tolibni qatl qilishdan boshqa chora topolmadilar va bu ishga Abdurahmon ibn Maljamni yollashdi. Abdurahmon ibn Maljam xavorijlardan bo'lgan o'ta mutaassib kishi edi. U masjidda Ali roziyallohu anhuning kelishini poylab berkinib turdi. Ali roziyallohu anhu bomdod namozi uchun masjidga chiqqanida u zotga to'satdan tashlanib, qo'lidagi qilichi bilan boshlariga qattiq zarba berib qochdi. Ibn Maljamni tutib bog'lab qo'ydilar. Hazrati Ali keyin odamlarga qarab: "Jonga-jon, qonga-qon, agar o'lib ketsam, uni ham meni qanday o'ldirgan bo'lsa shunday o'ldirib yuboringlar. Agar tirik qol-sam, unda o'zim nima qilishni o'ylab ko'raman. Ey Bani Abdu Muttolib, amiral mo'mininni o'ldirdilar, degan bahona bilan musulmonlarning qonini to'kmanglar. Meni faqat bir qotil o'ldirdi, xolos. Ey Hasan, mana shu zarba tufayli ajal yetsa, uni ham xuddi shunday zarba bilan qatl qilinglar. Zero, men Rasul alayhissalomdan: "Qiynab o'ldirishdan saqlaninglar, qutirgan it bo'lsa ham", deganlarini eshitganman", dedi. Amirul mo'min Ali ibn Abu Tolib hijratning qirqinchchi yili ramazon oyining o'n to'qqizinchchi kechalaridan birida vafot etdi. Bu paytda u kishi oltmis uch yoshda bo'lgan. U kishi uch yarim oy kam besh yil xalifalikni boshqardi.⁸

Xulosa shuki Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu buyuk sahoba islom dinining rivojlanishiga juda kata hissa qo'shgan va din yo'lida o'zini fido qilgan sahoba ekan. Bu sahoba menda katta tasurot qoldirdi. Har bir musulmon shunday bo'lishini hohlardim.

⁷http://www.tarona.net/soft/mobile_kinolar/horij_kino_tarjima/ali_xorij_kinosi_uzbek_tilida_2018_premyera_hd/52-1-0-1219

⁸<https://islom.ziyouz.com/siyrat/xalifalar/xulofoi-roshidiyn-kitobidan>.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ummataliyev. S. Ilk islom tarixidan oltin sahifalar. Ummaviylar davri. - T. : O'qituvchi, 2021. – 296 B.
2. Jaloliddin Suyutiy.(Tarjimon Abdulloh Shokirov). Tarix al-Xulafo. -T. : Sharq, 2020. – 472 B.
3. Islom ensiklopediyasi. -T. : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2004.

WEB SAYTLAR.

1. <https://tamaddun.abiduvn.uz/a/Ali-ibn-Abu-Tolib-roziyallohu-anhu-7545>.
2. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/ali/>.
3. <https://ahlisunna.uz/kabada-tugilgan-saxoba/>.
4. <https://islom.ziyouz.com/siyrat/xalifalar/xulofoi-roshidiyn-kitobidan>.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ali>.
6. http://www.tarona.net/soft/mobile_kinolar/horij_kino_tarjima/ali_xorij_kinosi_uzbek_tilda_2018_premyera_hd/52-1-0-1219